


O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI  
OLY TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI

*70210501 – Rangtasvir  
magistratura mutaxassisligining*

*MALAKA TALABI*

Toshkent-2024



**ISHLAB CHIQLIGAN VA KIRITILGAN:**  
Kamoliddin Behzod nomidagi Milliy rassomlik va dizayn instituti.

**TASDIQLANGAN VA AMALGA KIRITILGAN:**

O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligining  
2024-yil "\_\_\_" \_\_\_\_\_dagi \_\_\_\_\_ - sonli buyrug'i bilan tasdiqlangan.

**JORIY ETILGAN:**

O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi.

Mazkur Malaka talablari "Oliy ta'lim davlat ta'lim standarti. Asosiy qoidalar", "Oliy ta'lim yo'nalishlari va mutaxassisliklari klassifikatori", O'zbekiston Respublikasi Milliy va tarmoq malaka doiralari (ramkasi), kasbiy standartlar va kadrlar buyurtmachilari takliflariga muvofiq ishlab chiqilgan va rasmiy me'yoriy-uslubiy hujjat hisoblanadi.

O'zbekiston Respublikasi hududida Malaka talablarini rasmiy chop etish huquqi O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligiga tegishlidir.

## MUNDARIJA

T/r	bet
<b>1. Umumiy tavsifi.....</b>	<b>4</b>
1.1. Qo'llanish sohasi .....	4
1.1.1. Malaka talabining qo'llanilishi.....	4
1.1.2. Malaka talablarining asosiy foydalanuvchilari .....	4
1.2. Kasbiy faoliyatlarining tavsifi .....	4
1.2.1. Kasbiy faoliyatining sohalari.....	4
1.2.2. Kasbiy faoliyatlarining obyektlari.....	4
1.2.3. Kasbiy faoliyatlarining turlari .....	5
1.2.4. Kasbiy vazifalari.....	5
<b>2. Kasbiy kompetensiyalariga qo'yiladigan talablar .....</b>	<b>6</b>
<b>3. Amaliyotlarga qo'yiladigan talablar .....</b>	<b>7</b>
<b>4. Fanlar katalogining tuzilishi .....</b>	<b>8</b>
<b>Bibliografik ma'lumotlar.....</b>	<b>9</b>
<b>Kelishuv varag'i.....</b>	<b>10</b>

## **1. Umumiy tavsifi**

70210501 – Rangtasvir mutaxassisligi bo'yicha magistrlar tayyorlash kunduzgi ta'lim shaklida amalga oshiriladi. Mutaxassislik bo'yicha o'qitish kredit-modul' tizimi asosida tashkil qilinadi. Magistratura dasturining me'yoriy muddati 2 yil.

### **1.1. Qo'llanish sohasi**

#### **1.1.1. Malaka talabining qo'llanilishi.**

Malaka talabi 70210501 – Rangtasvir mutaxassisligi bo'yicha magistrlar tayyorlovchi barcha oliy ta'lim muassasalari uchun talablar majmuini ifodalaydi.

#### **1.1.2. Malaka talablarining asosiy foydalanuvchilari:**

Mazkur ta'lim yo'nalishi bo'yicha malaka talablari, o'quv reja va o'quv dasturlarini ishlab chiqish va yangilash, ular asosida o'quv jarayonini samarali amalga oshirish uchun mas'ul hamda o'z vakolat doirasida bitiruvchilarning tayyorgarlik darajasiga javob beradigan oliy ta'lim tashkilotining boshqaruv xodimlari (rektor, prorektorlar, o'quv bo'limi boshlig'i, dekanlar va kafedra mudirlari) va professor- o'qituvchilari;

magistratura mutaxassisligining o'quv rejasi va o'quv dasturlarini o'zlashtiruvchi oliy ta'lim tashkilotining talabalari;

magistratura bitiruvchilarining tayyorgarlik darajasini baholashni amalga oshiruvchi Davlat attestatsiya komissiyalari;

ta'limni boshqarish bo'yicha vakolatli davlat organlari;

oliy ta'lim tashkilotlarini moliyalashtirishni ta'minlovchi organlar;

oliy ta'lim tizimini akkreditatsiya va sifatini nazorat qiluvchi vakolatli davlat organlari;

kadrlar buyurtmachilari va ish beruvchi tashkilot va korxonalar;

oliy ta'lim tashkilotlariga o'qishga kirayotgan bakalavriat bitiruvchilari va boshqa manfaatdor shaxslar.

### **1.2. Kasbiy faoliyatlarining tavsifi.**

#### **1.2.1. Kasbiy faoliyatining sohalari.**

Oliy, malaka oshirish va qayta tayyorlash hamda kasb-hunar ta'limi muassasalarida mutaxassislikka oid fanlarni o'qitish, ilmiy institutlarda ilmiy tadqiqot ishlarini olib borish, O'zbekiston Badiiy akademiyasi, O'zbekiston Badiiy ijodkorlar uyushmasi, O'zbekiston Respublikasi Madaniyat vazirligi, madaniy meros ob'ektlari, Barkamol avlod bolalar maktablari va markazlari, O'zbekiston tasviriy san'at muzeylari, davlat va nodavlat tashkilotlari, xususiy ishlab chiqarish birlashmalari hamda "Hunarmand" uyushmasida kompleks masalalar bilan bog'liq kasbiy sohalar majmuasini qamrab oladi.

#### **1.2.2. Kasbiy faoliyatlarining obyektlari.**

- O'zbekiston Badiiy akademiyasi;
- O'zbekiston Badiiy ijodkorlar uyushmasi;

- Bolalar musiqa va san'at maktablari hamda ixtisoslashtirilgan san'at maktablari;
- xususiy ishlab chiqarish birlashmalari;
- madaniyat markazlari;
- "Hunarmand" uyushmasi;
- davlat va nodavlat tashkilotlari
- umumiy o'rta ta'lim maktablari, akademik litseylar, ixtisoslashtirilgan rassomlik maktablari;
- Barkamol avlod bolalar maktablari va markazlari;
- ilmiy – tadqiqot jarayoni;

### **1.2.3. Kasbiy faoliyatlarining turlari:**

- Ilmiy-tadqiqot;
- tashkiliy-boshqaruv;
- pedagogik faoliyat;
- axborot-tahliliy faoliyat;

### **1.2.4. Kasbiy vazifalari.**

70210501 – Rangtasvir mutaxassisligi bo'yicha Milliy malaka ramkasining 7-malaka darajasi hamda magistr kasbiy faoliyatlarining sohalari, ob'ektlari va turlariga muvofiq magistratura bitiruvchisi quyidagi kasbiy vazifalarni bajarishga qodir bo'lishi lozim:

#### **Ilmiy tadqiqot faoliyatida:**

Mutaxassislikka mos yangi ilmiy natijalar, ilmiy adabiyotlar yoki ilmiy-tadqiqot va ijodiy loyihalarni tahlil qilishi;

kasbga oid muammolar yechimlarini amaliyotga tatbiq etish, ishlab chiqarish jarayonida sifatni boshqarish;

xorijiy va respublika miqyosida o'tkaziladigan ilmiy konferensiyalarda, seminarlarda ishtirok etish;

xorijiy va respublika miqyosidagi ilmiy jurnallarga maqolalar tayyorlash; ilmiy-tadqiqot natijalarini va ishlanmalarni amaliyotga tatbiq etishda ishtirok etish.

ilmiy ish yaratishda sohaga doir dolzarb muammolarni aniqlash va ularni ilmiy o'rganish bo'yicha zamonaviy bilimga, keng fikr yuritish doirasiga ega bo'lish;

o'tkazilayotgan tadqiqotlar mavzusi bo'yicha ilmiy sharhlarni ishlab chiqishi, referat va bibliografiyalarni tuzishi;

ilmiy seminarlar ilmiy jarayonida ishtirok etishi;

#### **Tashkiliy-boshqaruv faoliyatida:**

ishlab chiqarish faoliyati sifatini boshqarish jarayonlarini ishlab chiqish va tatbiq qilish;

ishlab chiqarish jarayonlarini samarali amalga oshirish uchun zarur bo'lgan resurslarini rejalashtirish;

zamonaviy axborot texnologiyalari tizimini yaratish va ularning

ekspluatatsiyasi bilan bog'liq bo'lgan jarayonlarini monitoring qilish va sifatini baholash usullari va mexanizmlarini ishlab chiqish;

atrof-muhitni muhofaza qilish va mehnat xavfsizligi talablariga mos kelishi borasida ishlab chiqarish jarayonlarini nazorat qilishda ishtirok etish;  
ijodiy guruh faoliyatini va badiiy ko'rgazmalarni tashkil etish.

san'at asarlariini ishlab chiqarishga yangi innovatsion loyihalar va texnologik jarayonlarning tatbiq qilinishini tashkil qilishi;

san'at asarlari sifatini nazorat qilishning usullarini ishlab chiqishi va amalda qo'llashi, texnologik jarayonlarning ta'minotini ta'minlashda qatnashishi lozim.

**Oliy, malaka oshirish va qayta tayyorlash ta'lim muassasalarida ilmiy-pedagogik hamda professional ta'lim muassasalarida pedagogik faoliyatida (o'rnatilgan tartibda):**

Oliy ta'lim, qayta tayyorlash va malaka oshirish, professional ta'lim muassasalarida nazarda tutilgan o'quv fanlari bo'yicha zamonaviy axborot va pedagogik texnologiyalardan foydalanib, bakalavriat va magistratura o'quv rejalarida o'zlashtirilgan fanlar doirasida nazariy, amaliy va laboratoriya mashg'ulotlarini o'tkazish;

o'quv jarayonini tashkil etish va o'tkazilishiga ko'maklashish, tadqiqotlarda ishtirok etish, ma'lumotlarni to'plash, umumlashtirish va tahlil etish;

o'quv fanlarini o'qitish uslubiyotini egallashi;

oliy va professional ta'lim muassasalarida o'quv fanlari bo'yicha nazariy, amaliy mashg'ulotlarni o'tkazishi;

zamonaviy axborot va pedagogik texnologiyalardan foydalanib, nostandart o'quv mashg'ulotlarini o'tkazishi;

o'qitilayotgan fanlar bo'yicha darslarni o'tkazish uchun zarur bo'lgan o'quv-metodik hujjatlarni tuzishi, tayyorlash va rasmiylashtirishi;

o'quv mashg'ulotlarni o'tkazish uchun o'qitishning texnik vositalaridan foydalanishi;

o'qitilayotgan fan hamda pedagogik faoliyat bo'yicha o'z-o'zini muntazam takomillashtirib borishi;

uzluksiz ta'lim tizimining DTS, Davlat talablari va boshqa o'quv-me'yoriy hujjatlarni ishlab chiqish qobiliyatiga ega bo'lishi lozim.

**Axborot-tahliliy faoliyatida:**

Loyihalar samaradorligini baholash;

axborot-tahlil faoliyati natijalari bo'yicha hisobot tayyorlash;

boshqaruv qarorlarining samaradorligini baholash.

**2. Kasbiy kompetensiyalariga qo'yiladigan talablar.**

ilmiy tadqiqot va pedagogika metodologiyasini bilishi va kasbiy faoliyatda undan foydalana olishi;

sohaning dolzarb masalalarini bilishi, ilmiy-ijodiy muammolarni va jarayonlarni mustaqil tahlil qila olish;

o'z faoliyatida kino sohasiga oid meyoriy huquqiy hujjatlardan foydalana olishi;

ijodiy fikrlashni rivojlantirish, kasbiy madaniyatni shakllantirish;

yangi janrlar ustida ijodiy izlanishlar olib borish;

milliy kontetnlar loyihalarini yaratish va amalga oshirish;  
o'z kasb faoliyatida mustaqil asoslangan qarorlar qabul qila olishi;  
yangi bilimlarni mustaqil egallay bilishi, o'z ustida ishlashi va mehnat faoliyatini ilmiy asosda tashkil qila olishi;  
pedagogik faoliyatida axborot va pedagogik texnologiyalardan foydalanish;  
xorijiy tajriybalarni o'rganish va o'quv jarayoniga tadbqiq etib borish;  
ta'lim sifati va samaradorligini oshirishga innovatsion yondashish;  
ilmiy faoliyati natijalari bo'yicha davlat va xorijda e'lon qilingan loyihalarda ishtirok etish uchun loyiha tayyorlash;

ilmiy, amaliy tadqiqotlar olib borish, tajriba natijalarini qayta ishlash va ular asosida ilmiy asoslangan xulosalar chiqarish, ilmiy maqolalar tayyorlash va taxrir qilish, ilmiy seminar, konferensiya va simpoziumlarni tashkil etish, o'tkazish, ilmiy loyihalarni ishlab chiqish ;

ishlab chiqarishni tashkil etish va boshqarish;

mutaxassislik bo'yicha bilimlar bazasini yaratish, jamlash va ulardan foydalanish ko'nikmalarini rivojlantirishi,tadqiqot etilishi;

tasviriy san'atning umumiy tarixi, rangtasvir tarixi, taniqli jaxon va O'zbekiston rangtasvirchi rassomlar ijodini va tasviriy san'atning yo'nalishlarini bilish;

badiiy akademik maktab qonunlarini, plastik anatomiya, perspektiva va tasviriy san'at tushunchalari va ashyolarini bilish;

rangtasvir texnika va texnologiyalari qoidalarini bilish;

jonli va jonsiz obektlarning (natura) badiiy chizmasini chizish va rangda yozish, mavzuga oid kompozitsiyalar tuzish va turli rangtasvir texnologiyalarida ijrosini amalga oshirish, asarning badiiy yechimini ishlab chiqish, tahlil qilish ko'nikmalariga va badiiy didga ega bo'lish;

### **3. Amaliyotlarga qo'yiladigan talablar.**

#### **Amaliyotlarga qo'yiladigan talablar.**

**Ilmiy amaliyot (tajriba orttirish) – umumkasbiy va ixtisoslik fanlaridan nazariy bilimlarni mustahkamlash va ilmiy jarayonlari bilan uyg'unlashtirish, tegishli ilmiy bilimlar, amaliy ko'nikmalar, kompetensiyalar va malakalarni shakllantirishga qaratiladi.**

#### 4. Fanlar katalogining tuzilishi:

T/r	Faning malakaviy kodi	O'quv fanlari, bloklar va faoliyat turlarining nomlari	Umumiy yuklamaning hajmi, soatlarda	Kredit miqdori	Semestri
<b>1.00</b>		<b>Majburiy fanlar</b>			
1.01	ITM1104	Ilmiy tadqiqot metodologiyasi	120	4	1
1.02	MFO'M1104	Maxsus fanlarni o'qitish metodikasi	120	4	2
<b>Rangtasvir: dastgohli rangtasvir turi bo'yicha majburiy fanlar</b>					
1.03	DChBY1320	Dastgohli chizmatasvirda badiiy yechim	600	20	1,2,3
1.04	DRBY1320	Dastgohli rangtasvirda badiiy yechim	600	20	1,2,3
1.05	BAK1306	Badiiy asarda kompozitsiya	180	6	1,2,3
<b>2.00</b>		<b>Tanlov fanlar</b>	<b>360</b>	<b>12</b>	<b>1,2,3</b>
2.00		<i>Tanlov fanlar</i>	360	12	1,2,3
Kvalifikatsiya		Pedagog-tadqiqotchi, rangtasvir rassomi			
<b>Rangtasvir: mahobatli rangtasvir turi bo'yicha majburiy fanlar</b>					
1.03	MRBY 1320	Mahobatli rangtasvirda badiiy yechim	600	20	1,2,3
1.04	MChBY 1320	Mahobatli chizmatasvirda badiiy yechim	600	20	1,2,3
1.05	MSK1303	Monumental san'at kompozitsiyasi	90	3	1,2,3
1.06	Ash Ish 1303	Ashyoda ishlash	90	3	1,2,3
<b>2.00</b>		<b>Tanlov fanlar</b>	<b>360</b>	<b>12</b>	<b>2,3</b>
2.00		<i>Tanlov fanlar</i>	360	12	2,3
Kvalifikatsiya		Pedagog-tadqiqotchi, mahobatli rangtasvir rassomi			
		<b>Jami</b>	<b>1980</b>	<b>66</b>	
<b>3.00</b>		<b>Ilmiy faoliyat</b>	<b>1620</b>	<b>54</b>	<b>1,2,3,4</b>
		<b>HAMMASI</b>	<b>3 600</b>	<b>120</b>	

## Bibliografik ma'lumotlar

UDK: 002- 651. 1/7

Guruh T 55

OKS 01.040.01

---

### **Tayanch so'zlar:**

Kasbiy faoliyat turi, kompetensiya, modul, ta'lim yo'nalishi, kasbiy faoliyat ob'ekti, kasbiy faoliyat jabhasi, bakalavriatning asosiy o'quv reja va fan dasturi (bakalavriat dasturi), profil, o'qib-o'rganish natijalari, o'quv sikli, muzey, muzey-qo'riqxon, virtual muzey, madaniy meros, muzey ashyolari, muzey kolleksiyalari, fond, eksponat, ekspozitsiya, ko'rgazma, konservatsiya, ta'mirlash, ekspertiza, atributsiya, menejment, marketing, imidj, kommunikatsiya, audiogid, sensorli kiosk, kolleksiya, badiiy loyihalash, vitrina.

Ishlab chiquvchilar, kelishilgan asosiy turdosh oliy ta'lim muassasalari  
hamda kadrlar iste'molchilari

ISHLAB CHIQILGAN:

Kamoliddin Behzod nomidagi Milliy rassomlik va dizayn instituti



Rektor

A.Mirzoraximov

2024-yil " " "

O'zbekiston davlat san'at va madaniyat instituti



Rektor

N.Sayfullayev

2024-yil " " "

KELISHILDI:

O'zbekiston Respublikasi  
Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar  
vazirligi huzuridagi Oliy ta'limni  
rivojlantirish tadqiqotlari markazi  
Direktor



2024-yil " " "

M.O'

O'zbekiston Badiiy akademiyasi

Rais

A.Nuriddinov



M.

O'zbekiston Badiiy ijodkorlar  
uyushmasi

Rais

I.M.Valixodjaye

2024-yil " " "

M.O'.



P.Benkov nomidagi Respublika  
ixtisoslashtirilgan rassomlik maktabi

Direktor

U.B.Xakimov



M. O'